

O‘ZINI O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLAR FAOLIYATINI MOLİYAVIY RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA – TADBIRLARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Baxodirov Zokirjon Olimjon o‘g‘li

e-mail: zokirjonbahodirov2003@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi huquqiy-me‘yoriy asoslari va ularning faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish bo‘yicha davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, shu jumladan, ushbu soha bo‘yicha xorijiy tajribalar hamda ularning mamlakatimiz qonunchiligi bilan bog‘liq jihatlari, shu bilan birga, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, davlat dasturlari hamda moliyaviy rag‘bat vositalari to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun qo‘shimcha takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, frilanserlar, davlat dasturlari, moliyaviy risklarni boshqarish, inflyatsiya riski, likvidlik riski, sug‘urta riski, beqaror daromadlilik riski, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxslar, sog‘liqni saqlash uchun jamg‘arma, nafaqa jamg‘armasi, sug‘urta.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida bozor islohotlarini chuqurlashtirish, aholi bandligini ta‘minlash, norasmiy mehnat bozorini rasmiylashtirish va fuqarolarning o‘z mehnati bilan daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning moliyaviy faoliyatini rag‘batlantirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyat samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5052-son Farmoniga ko‘ra bandlikni kengaytirish, fuqarolarning mehnat faoliyatini mustaqil tashkil etish, mikrokreditlar orqali kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini kuchaytirish belgilab berilgan.[1] Ushbu hujjat o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning moliyaviy faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun zarur huquqiy-iqtisodiy asosni yaratdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O'RQ-642-sonli "Aholi bandligi to'g'risida" deb nomlangan Qonunida fuqarolarning shaxsiy mehnat faoliyatini qonuniy asosda amalga oshirish, mustaqil daromad manbaini shakllantirish, davlat tomonidan ularning mehnat faoliyatini ro'yxatga olish tartibi belgilab qo'yilgan.[2] Mazkur qonun mamlakatda o'zini o'zi band qilishni rasmiylashtirish, ularning huquqiy maqomini mustahkamlash va moliyaviy faoliyatini rag'batlantirishda muhim huquqiy zamin yaratgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-son "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorida o'zini o'zi band qilgan shaxsni davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazish tartibi, ularning mehnat faoliyatini tashkil etish hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar va ularning xizmatlaridan (ishlaridan) foydalanuvchilar o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish kabi chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan.[3]

Shu jumladan, 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida ham o'zini o'zi band qilgan shaxslarni rasmiy iqtisodiyotga jalb etish, ularning moliyaviy faoliyatini mikromoliyalashtirish, davlat-xususiy hamkorlikni kengaytirish, o'zini o'zi band qilgan aholining soliq yukini kamaytirish orqali ularni rag'batlantirish chora-tadbirlari belgilangan.[4]

Shu jihatdan, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning moliyaviy faoliyatini rag'batlantirish yo'llarini takomillashtirish masalasi O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat bandlikni oshirish, balki iqtisodiyotda norasmiy sektor ulushini kamaytirish, aholi daromadlarini barqarorlashtirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmi tarixi uzoq o'tmishga borib taqalmasligi va bu loyiha hali nisbatan yangi ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, bu mexanizm bo'yicha ilmiy asarlar hali ko'p emas. Lekin shunga qaramasdan, o'zini o'zi band qilish jarayonini tashkil etish, uning ijobiy va salbiy tomonlari, ushbu sohadagi moliyaviy risklarni boshqarish hamda moliyaviy strategiyalar bo'yicha nazariy va amaliy jihatlarini xorijiy iqtisodchi olimlar H.Bhasin, T.J.Law, K.Wren, J.Murad, E.S.Chukwuemeka, S.Brown, M.Dietrich, A.Ortiz, K.taylor, Baker Chi, Parker, S.Miller, T.Veeret, R.Williams va boshqalarning ilmiy asarlarida o'rganilgan.[5]

O'zbekistonda ushbu masala yuzasidan M.Diyorova, D.Karakhodjaeva, B.Tagayev, Sh.Chinorova, Sh.Dusiyorov, D.Shaxidova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.[6]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, sintez, iqtisodiy-statistika, induksiya va deduksiya, guruhlash va qiyosiy tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda o'zini o'zi band qilgan shaxslar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, transport, axborot texnologiyalari, tikuvchilik, hunarmandchilik va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqda. Shu sababli ularning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash tizimli yondashuvni, risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishni talab etadi. Ushbu mavzuni yoritishdan avval, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tushunchasining ta'rifini keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar — mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.[7]

Mehnat faoliyatining o'zini o'zi band qilish shakli an'anaviy mehnat munosabatlariga nisbatan ko'proq erkinlik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Biroq u o'ziga xos moliyaviy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bunday faoliyatda ish beruvchi tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy kafolatlar, barqaror ish haqi hamda avtomatik soliq ushlanmalari mavjud bo'lmaganligi sababli, o'zini o'zi band qilgan shaxslar o'z moliyaviy farovonliklari uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga oladilar. Ularning muvaffaqiyati noaniq va o'zgaruvchan daromad oqimlarini boshqarish, soliq majburiyatlarini bajarish, nafaqa jamg'armasini shakllantirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha puxta strategiyalar ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirishga bog'liqdir. Moliyaviy boshqaruvning ushbu asosiy tamoyillarini puxta o'zlashtirgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar an'anaviy ish joyiga ega xodimlarga nisbatan yanada yuqori darajadagi moliyaviy mustaqillik va xavfsizlikka erishishlari mumkin.

O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida bir qancha islohotlar olib borilayotgani, ushbu soha yurtimizda kundan kunga rivojlanib borayotganiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, o'zini o'zi band qilish faoliyati sohasiga 2026-yil 1-yanvardan boshlab ba'zi o'zgartirishlar kiritiladi. Bunda o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyati turlari 104 tadan 72 taga kamaytiriladi, ya'ni faoliyat turlari 34 taga kamaytirilib, yangi ro'yxatga elektron savdo maydonchalarida tovar va xizmatlarning chakana savdosi, shuningdek, nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish hamda


parrandachilik ham kiritilgan.[5] Yuqorida ta'kidlab o'tilgan 34 ta faoliyat turlarini qisqartirilishiga sabab shundaki, ular yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tishlari zarur bo'ladi. Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi o'zini o'zi band qilgan shaxslar bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtasida soliq, ro'yxatga olinish va boshqa sharoitlarda tafovut mavjud edi. Bu shuni anglatadiki, ba'zi faoliyat turlari bilan ham o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar, ham yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki yuridik shaxslar shug'ullanar edi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan to'lanadigan soliq to'lovlari bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliq to'lovlari o'rtasida sezilarli darajada tafovut yuzaga keladi. Shu sababli ro'yxatni qisqartirish orqali ular o'rtasida adolat va bir xil sharoitni yaratish, mamlakatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsad qilib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.08.2025 yildagi PQ-247-son "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran, yillik daromadi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun 1% stavkada aylanmadan olinadigan soliq tizimi joriy qilinmoqda.[6] Bunda quyidagilar bekor qilinadi:

- YaTTlar uchun qat'iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash;
- soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan daromadi yuz million so'mdan oshmagan o'zini o'zi band qilgan shaxslarni aylanmadan olinadigan soliq to'lashdan ozod qilish.

Ushbu qaror yuzasidan, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning ixtiyoriy ravishda rasmiy sektorda ishlashini rag'batlantiruvchi raqobatbardosh va shaffof tadbirkorlik muhitini shakllantirish hamda ma'muriy tartib-taomillarning takrorlanuvchi va ortiqcha talablarini bekor qilish, davlat ro'yxatidan o'tkazishdan tortib hisobotni topshirishgacha bo'lgan barcha asosiy xizmatlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalar yaratish, naqdsiz to'lovlarni qabul qilish uchun qulay va samarali mexanizmlarni joriy etish maqsad qilib qo'yilgan. Mazkur qarorda YaTT va o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyati o'rtasida o'zaro teng shart-sharoitlarni ta'minlash, "soliqdan qochish" jarayonlarini cheklash, shu bilan birgalikda davlat tomonidan tartibga solish vositalarini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab qo'yilgan.

Endi esa bugungi kunda mamlakatimizda o'z o'zini band qilish sohasidagi statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.



Rasm. 01.07.2025 yildagi o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni dinamikasi (hudud va faoliyat turlari bo'yicha) [7]

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining ma'lum qilishicha, 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra o'zini o'zi band qilgan aholining 58 foizi erkaklar, 42 foizi esa ayollardir. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslansa, 56 foizga ko'paygan.

O'zbekistonliklar eng ko'p maishiy xizmatda o'z-o'zini band qilgan. Qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishda band bo'lganlar soni esa o'tgan yilgidan 64-66%gacha ko'p.

Hududlar kesimida qaralganda esa eng ko'p Samarqand viloyatida – yarim milliondan ortiq fuqaro o'zini o'zi band qilgan. Undan keyingi o'rinlarda 538,8 ming nafar fuqaro bilan Toshkent, 517,5 ming fuqaro bilan Qashqadaryo viloyatlari turibdi.

2025-yil boshlangandan beri esa 184,2 ming fuqaro o'zini band qilishda yengil avtotransportda yo'lovchi tashish faoliyatini tanlagan. Eslatib o'tamiz, 2024-yilning 1-iyul holatida 3,5 milliondan ortiq kishi o'z-o'zini band qilgan.



2-rasm. Yillar kesimida o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni [7],[8],[9],[10],[11]

Yuqorida keltirilgan diagramma ma'lumotlariga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni,

- 2021-yil – 223 ming nafar;
- 2022-yil – 1 324 031 nafar;
- 2023-yil – 2,5 mln nafar;
- 2024-yil – 4 083 700 nafar;
- 2025-yil – 5,5 mln nafardan ortiq ko'rsatkichni tashkil etayotganini ko'rishimiz mumkin.[7]

Yuqorida keltirib o'tilgan statistik ko'rsatkichlardan shuni anglashimiz mumkinki, mamlakatimizda o'zini o'zi band qilganlar soni yildan – yilga tobora ortib bormoqda. Albatta buning negizida mamlakatimizda ushbu soha bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan davlat dasturlari, shu jumladan Prezident hamda Hukumat Qarorlari, soliqdan imtiyozlar, imtiyozli bank kreditlari, subsidiyalar va shu kabi bir qancha moliyaviy rag'batlantirish chora – tadbirlari yotadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyati O'zbekiston iqtisodiyotida norasmiy bandlikni qisqartirish, aholini iqtisodiy faol qatlamga jalb etish hamda kichik biznesning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston iqtisodiyotida norasmiy bandlikning ulushini qisqartirish sohasida o'zini

o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

- o'zini o'zi band qilgan shaxslarning o'z faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirgan sarmoyasi uchun uning ma'lum foizi miqdorida kelgusi davr soliq majburiyatlarini kamaytirish imkonini beruvchi rag'batlantiruvchi mexanizmni joriy etish;

- soliq intizomini yuqori darajada bajarayotgan o'zini o'zi band qilgan shaxslarni bank kreditlari bo'yicha davlat kafolatlari tizimi orqali moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini yo'lga qo'yilishi;

- o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini raqamli nazorat va rag'bat tizimi, ya'ni, soliq organlari, tijorat banklari hamda Kambag'allikni qisqartirish va Bandlik vazirligi o'rtasida yagona elektron ma'lumot almashinuvi orqali boshqarish konsepsiyasi ishlab chiqilishi;

- yurtimizda ham xuddi AQShda bo'lgani kabi, o'zini o'zi band qilgan shaxslarni sog'lig'ini sug'urtalash maqsadida tijorat banklarida ochiladigan "Sog'liqni saqlash uchun hisobvaraqlar" tizimini joriy etish, ushbu hisobvaraqlarga o'tkazib boriladigan mablag'lardan faqatgina tibbiy ehtiyojlar uchun foydalanishni nazorat qilish hamda ushbu hisobvaraqlarga o'tkazib boriladigan mablag'lar soliqqa tortilmasligini ta'minlash;

- xorijiy davlatlarda bo'lgani kabi, yurtimizda ham o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun faqat ularning faoliyatigagina oid bo'lgan debitorlik qarzlari vujudga kelib, ular haqiqatdan ham qaytmasa, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlaridan ushbu qarz miqdoriga teng summa chegirilib tashlanishini ta'minlash.

Bundan tashqari, moliyaviy jihatdan intizom va shaffoflikni ta'minlash nuqtai nazaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning moliyaviy barqarorligini oshirishda shaxsiy byudjet yuritish madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-247-son Qarori bilan belgilab qo'yilgan daromad va xarajatlarni elektron qayd etuvchi raqamli platformalarni ishlab chiqilishi nazarda tutilgan. Ushbu raqamli platforma Elektron hukumat bilan integratsiya qilinadi hamda yakka tartibdagi tadbirkor va o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida masofaviy ro'yxatdan o'tish imkoniyati yaratiladi. Mazkur raqamli platformadan ro'yxatdan o'tgan YaTT va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun hujjatlar aylanish jarayoni, moliyaviy hisobotlar, soliq to'lovlari avtomatik tarzda shakllantiriladi. Davlat tomonidan sohani tartibga solish vositalarini takomillashtirish sifatida quyidagi chora-tadbirlarni joriy qilish ko'zda tutilgan:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarda raqamli platformalarda generatsiya qilingan elektron to'lovlarni qabul qiluvchi maxsus QR kod mavjud bo'lishi chakana savdo qoidalarining majburiy talabi etib

belgilanadi va maxsus QR kod mavjud emasligi nazorat-kassa texnikasini va (yoki) hisob-kitob terminallarini qo'llamaslikka tenglashtiriladi;

- raqamli platformalar orqali berilgan xarid cheklariga nisbatan qonunchilikda belgilangan jismoniy shaxslarga sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining 1 foizini qaytarish tartibi qo'llanilmaydi;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarga kreditlar olishda qulaylik yaratish maqsadida raqamli platformalardagi pul aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotlar kredit byurolariga kiritiladi.

Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarning izchil joriy etilishi o'zini o'zi band qilgan shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatida moliyaviy intizom va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Raqamli platformalar orqali daromad va xarajatlarning elektron qayd etilishi, hujjatlar aylanishi hamda soliq va moliyaviy hisobotlarning avtomatlashtirilishi moliyaviy barqarorlikni oshirish bilan birga, kreditlash jarayonida risklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, pul aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotlarning kredit byurolariga integratsiya qilinishi banklar uchun ishonchli axborot bazasini shakllantirib, o'zini o'zi band qilgan shaxslarni moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://lex.uz/ru/docs/-3211749> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2017 yildagi PF-5052-son "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni;
2. <https://lex.uz/docs/-5055690> O'zbekiston Respublikasining 20.10.2020 yildagi O'RQ-642-son "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni;
3. <https://lex.uz/docs/-5182451> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.12.2020 yildagi 806-son "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori;
4. <https://lex.uz/uz/docs/-7131782> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2024 yildagi PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
5. S.Miller, T.Veeret, R.Williams "What are the best financial strategies for self-employed professionals?" <https://www.linkedin.com/advice/3/what-best-financial-strategies-self-employed-96whe>; S.Brown, M.Dietrich, A.Ortiz, K.taylor "Self-
6. Employment and Risk Preference" https://www.researchgate.net/publication/24130265_Self-Employment_and_Risk_Preference; Baker Chi & Parkey "Financial Strategies for the Self-Employed: Building Wealth and Security" <https://www.bcpaccountants.com/blog/effective-financial-strategies-for-self-employed-individuals>; J.Murad "Advantages and Disadvantages of Self-Employment: A Comprehensive Guide"

- <https://www.linkedin.com/pulse/advantages-disadvantages-self-employment-guide-jousef-murad-hbgbe>; E.S.Chukwuemeka “Nine (9) Advantages And Disadvantages Of Being Self Employed” <https://bscholarly.com/advantages-and-disadvantages-of-being-self-employed/>; K.Wren “The Pros and Cons of Being Self Employed” <https://medium.com/thecaffeinatedreader/the-pros-and-cons-of-being-self-employed-8c5ac24b7a9b>; Thomas J Law “What is self employment? Everything you need to know” <https://www.oberlo.com/blog/what-is-self-employment>; Hitesh Bhasin “Self Employment – Definition, Types And Advantages” <https://www.marketing91.com/self-employment-types-advantages/>;
7. Dusiyaarov Sh.X. “Analysis of the current state of taxation of individual entrepreneurs and self-employed persons in Uzbekistan” Vol. 10 No. 5 (2024): Journalnx (88-95 pages) <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/5358>; B.tagayev, Sh.Chinorova “The role of self-employment in effectively reducing informal employment” Vol. 2 No. 2 (2025): Menejment va iqtisodiyot ilmiy-tadqiqot jurnali (91-105 betlar) <https://journals.timeedu.uz/index.php/mesr/article/view/74/63>; D.Shakhidova “Economic Development of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan” <https://ilmiyxabarlar.uz/tad/article/view/1978>; M.Diyorova, D.Karakhodjaeva “Advantages and disadvantages of the institution of self-employment” Vol. 20 (2023): Eurasian Scientific Herald Scientific Journal (80-84 pages) <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/4225/3586>.
 8. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni 5,5 milliondan oshdi <https://kun.uz/kr/news/2025/07/21/ozbekistonda-ozini-oziband-qilgan-shaxslar-soni-55-milliondan-oshdi>;
 9. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni salkam 600 mingga yetdi <https://kun.uz/news/2021/02/12/ozbekistonda-ozini-oziband-qilgan-shaxslar-soni-salkam-600-mingga-yetdi>;
 10. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilganlar soni 1,3 milliondan oshdi <https://kun.uz/news/2022/02/18/ozbekistonda-ozini-oziband-qilganlar-soni-13-milliondan-oshdi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F02%2F18%2Fozbekistonda-ozini-oziband-qilganlar-soni-13-milliondan-oshdi>;
 11. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar soni 2,5 mlnni tashkil etdi <https://m.kun.uz/news/2024/01/17/ozbekistonda-ozini-oziband-qilgan-fuqarolar-soni-25-mlnni-tashkil-etdi>;
 12. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni 4 mlndan oshdi <https://kun.uz/news/2024/10/24/ozini-oziband-qilgan-shaxslar-soni-4-mlndan-oshdi>.